




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-iyul)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi.

2020-yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2456,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 200,5 mln. AQSh dollariga yoki 7,5 % ga kamaydi.


Mamlakatimizda ko‘pchilik faoliyat sohalari to‘xtab qolganligi inobatga olinib, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda. Xususan, davlat soliqlarining ma’lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo‘lib to‘lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o‘shishiga xizmat qiladi.






TSAda eksport hajmi 869,7 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 80,4 %) va import hajmi 1587,0 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 100,8 %) yetdi. Hisobot davrida 717,3 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2019-yil yanvar-iyulga nisbatan, % da)





TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2020-yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, % da
Ruminiya	427,8	0,2	427,6	21,1
Kanada	313,7	0,6	313,1	15,5
Kolumbiya	287,1	0,0	287,1	14,2
Turkiya	248,6	247,1	1,4	12,3
Xitoy	147,9	147,6	0,3	7,3
Rossiya	132,5	132,5	0,0	6,5
Makedoniya	127,2	0,0	127,2	6,3
Qozog'iston	109,4	91,7	17,7	5,4
Ukraina	76,7	16,4	60,3	3,8
B.A.A	64,5	57,7	6,7	3,2
Afg'oniston	49,7	49,6	0,1	2,4
Gonkong	47,8	0,0	47,8	2,4
Litva	45,8	0,1	45,6	2,3
Tojikiston	32,5	27,3	5,2	1,6
Vengriya	23,2	0,1	23,2	1,1
Lyuksemburg	20,5	0,0	20,5	1,0
Tailand	20,1	0,0	20,1	1,0
Indoneziya	17,3	3,1	14,2	0,9
Qirg'iziston	16,8	16,8	0,0	0,8
Ispaniya	15,9	0,1	15,8	0,8



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yilning yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,9 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning shu davriga nisbatan 96,2 % ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019-yilning yanvar-iyul oylarida 55,9 % ni, 2020-yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 54,1 % ni tashkil qilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 10,5 % ga kamaydi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2020-yil yanvar-iyul, % hisobida)






TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2020 yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Rossiya, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo'shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoy va Niderlandiya bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko'rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Ruminiya, Kanada, Kolumbiya va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-iyul)

Xalqaro integratsiyaning kamayishi hamda davlatlar o'rtasidagi chegaralarda taqiq davom etayotganligi sababli mamlakat eksportining barqaror o'sishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatib, eksport salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda. Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko'mak berilmoqda. 2020-yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan 869,7 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2019-yilning shu davriga nisbatan 80,4 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,3 % ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (66,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (13,1 %), turli xil tayyor buyumlar (8,0 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (5,4 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,6 %) shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (2,0 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)
- Hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-iyul)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	769,7	556,6	313,1	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	114,1	80,7	33,4	13,1	25,8	6,0
Ichimliklar va tamaki	1,4	1,2	0,2	0,2	0,4	0,03
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	47,2	19,8	27,4	5,4	6,3	4,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lar), yog'lar va mumlar	1,7	0,2	1,5	0,2	0,1	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	31,4	23,7	7,6	3,6	7,6	1,4
Sanoat tovarlari	581,5	110,6	471,0	66,9	35,3	84,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	17,1	8,9	8,2	2,0	2,8	1,5
Turli xil tayyor buyumlar	69,5	67,2	2,2	8,0	21,5	0,4
Xizmatlar	5,8	0,8	5,0	0,7	0,2	0,9





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O'SISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-iyul)

2020-yilning yanvar-iyul oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar hamda turli xil tayyor buyumlarda o'sish kuzatildi.

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	80,4	75,4	91,0

shu jumladan:

oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	125,5	117,9	148,6
Ichimliklar va tamaki	69,5	63,5	166,9
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	29,9	55,6	22,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	198,8	2,3 m.	139,9
Sanoat tovarlari	79,3	65,4	83,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	60,8	71,2	52,5
Turli xil tayyor buyumlar	148,3	151,1	94,5
Xizmatlar	77,5	44,6	87,3




**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI**
(2020-yil yanvar-iyul)

Asosiy hamkor
davlatlar

Ulushi 86,6 %

Boshqa hamkor
davlatlar

Ulushi 13,4 %





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 84,0 mln. dollar qiymat ega 155,4 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2019-yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 19,3 % ko'paygan va naturada – 2,2 barobarga o'sgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 41,6 mln. AQSh dollariga teng 111,2 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 16,2 % o'sgan), shuningdek 35,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi 36,1 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda 37,8 % ga o'sgan).

2020-yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari

Meva va rezavorlar	Uzum	Qovun va tarvuzlar	Yeryong'og'lar	Sabzavotlar
36,1 ming tonna	6,1 ming tonna	1,6 ming tonna	0,4 ming tonna	111,2 ming tonna
35,2 mln. AQSH dollari	6,0 mln. AQSH dollari	0,8 mln. AQSH dollari	0,5 mln. AQSH dollari	41,6 mln. AQSH dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2020-yilning yanvar-iyun oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 76,8 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 8,8 % ni tashkil qiladi.




TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-iyul)

Mamlakatimizda faoliyati yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-iyul oylari mobaynida import hajmi 1587,0 mln. AQSh dollari (2019-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,8 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (32,6 %), sanoat tovarlari (18,1 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (15,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,6 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (6,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-iyul)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	1587,0	814,8	772,2	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	199,2	159,2	40,1	12,6	19,5	5,2
Ichimliklar va tamaki	2,8	2,5	0,3	0,2	0,3	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	248,3	218,1	30,2	15,6	26,8	3,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	64,9	64,3	0,5	4,1	7,9	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	46,8	35,4	11,4	3,0	4,3	1,5
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	108,6	28,4	80,2	6,8	3,5	10,4
Sanoat tovarlari	286,7	181,7	105,0	18,1	22,3	13,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	518,1	100,7	417,4	32,6	12,4	54,1
Turli xil tayyor buyumlar	73,4	13,6	59,8	4,6	1,7	7,7
Boshqa turdagi tovarlar	10,0	5,5	4,5	0,6	0,7	0,6
Xizmatlar	28,1	5,3	22,8	1,8	0,7	3,0

Importning eng katta ulushi, jumladan, nooziq-ovqat xom-ashyosi (26,8 %), sanoat tovarlari (22,3 %), shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (19,5 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (54,1 %) hamda sanoat tovarlari (13,6 %) hissasiga to'g'ri keladi.




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-iyul, % hisobida)

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	100,8	98,4	103,4
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	91,0	129,1	41,9
Ichimliklar va tamaki	2,2 m.	2,4 m.	126,6
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	79,2	72,5	2,3 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	3,6 m.	3,8 m.	48,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	95,6	95,9	94,7
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	98,6	77,7	108,9
Sanoat tovarlari	89,0	78,7	115,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	110,7	153,4	103,8
Turli xil tayyor buyumlar	162,9	145,3	167,5
Boshqa turdagi tovarlar	94,7	2,6 m.	52,7
Xizmatlar	156,8	118,1	169,7





VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020-yil yanvar-iyul)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Ruminiya, Kanada, Kolumbiya, Makedoniya Respublikasi, Ukraina, Gonkong va Litva hamkor davlatlaridan jami import hajmi 1308,7 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 82,5 % ini tashkil qiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:(71) 202-86-59